



## TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARDA ANALITIK FIKRLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Ganiev Temirbay Sultanbaevich**

*Kata o'qituvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi*

**Annotatsiya:** *Maqolada analitik fikrlash ko'nikmasining ahamiyati va tarix darslarida o'quvchilarda ushbu ko'nikmani rivojlantirish usullari ko'rib chiqilgan va tegishli xulosalar chiqarilgan.*

**Kalit so'zlar:** *analitik fikrlash, pedagogik texnologiyalar, "Daymond" metodi, Qo'shyozuv daftari mashqi*

**Аннотация:** *В статье рассматривается значение навыка аналитического мышления и методы развития этого навыка у учащихся на уроках истории, сделаны соответствующие выводы.*

**Ключевые слова:** *аналитическое мышление, педагогические технологии, метод "Даймонд," упражнение в тетради двойного письма*

**Abstract:** *This article examines the importance of analytical thinking skills and methods for developing these skills in students during history lessons, and draws relevant conclusions.*

**Keywords:** *analytical thinking, pedagogical technologies, "Diamond" method, Double-entry notebook exercise*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu paytgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni egallash o'rgatilgan bo'lsa, endilikda zamonaviy texnologiyalarni qo'llab, ularni bilimlarni o'zlari izlab topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Bu jarayonda o'qituvchi faqat boshqaruvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi, o'quvchi dars jarayonining markaziy figurasiga aylanadi.

Tarix fanida har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi mavjud. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiyalar - bu individual holat bo'lib, u o'qituvchi o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonida samarali usullarni amaliyotga tatbiq etishni taklif etishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi natijasida o'quvchilarda mustaqil bilim olish imkoniyatlari keng ekanligi haqida O'zbekistonlik metodist olimlar tomonidan qimmatli fikrlar bildirilgan.

"O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyati tashkil etilsa, har ikkisi ham ijobiy natijaga erishsa, o'quv jarayonida



o'quvchilar erkin fikrlasa, ijodiy yondashsa, izlansa, ma'lumotlarni tahlil qilsa, o'zlari xulosa chiqarib, o'ziga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi o'quvchilarning bunday xizmatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratilsa, bizningcha, mana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti"ning maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillarida ham O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish eng muhim vazifalardan biri etib belgilangan [2]. Shunday ekan, bu bildirilgan fikrlar, vazifalar maktab o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Analitik fikrlash nima? Bu tushunchani kim qanday tushunadi? Nima uchun bugungi kun o'quvchisidan analitik fikrlash talab etilmoqda? Uning mazmuni va mohiyati nimada? O'quvchilarda analitik fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin? Bu savollar bugungi kunda barcha pedagoglarni o'ylantirishi tabiiy holdir.

Analitik fikrlash - bu qandayda bir mavzu buyicha sodir bo'ladigan qarama-qarshiliklarni tizimli hal qilish. Analitik tafakkur rivojlangan shakllarida mexanik jarayon emas, balki jonli, erkin faoliyatdir. Inson muammoni hal qilish jarayonida mantiqiy operatsiyalarning tuzilishini tizimli kuzatish jarayonida aniqlab bo'lmaydi. Uni aniqlashda maxsus tahlil talab qilinadi. Analitik fikrlaydigan sub'ekt bu jarayonda ikkinchi darajali elementlarni qoldirib, ob'ekt-topshiriqning dinamik tuzilishini bilishga intiladi. O.V.Igrakova o'z tadqiqotlarida analitik tafakkur haqiqatni ob'ektiv baholashga intiladi, deb ta'kidlaydi. Analitik fikrlashni shakllantirish jarayonida masalalarni echish uchun ma'lum algoritmlar ishlab chiqiladi. Bu uning keyingi taraqqiyotini oldindan belgilab beradi va tafakkur sub'ektivlik sifatini saqlab qoladi.

Analitik fikrlash ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Ilmiy adabiyotlarda (A.Z.Zak, D.V.Kuzin, SH.Xasanov va boshqalar) tahlil bir nechta belgilarga asoslanadi. Tahlil oxir-oqibatda elementni aniqlash bilan bog'liq bo'lib, uning xususiyatlarining o'zgarishi mavjud hodisalarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlaydi. Demak, analitik fikrlaydigan sub'ekt tizimni shakllantiruvchi xususiyatni aniqlash uchun tizimning barcha parametrlarini hisobga olishi kerak bo'ladi [3].

D.V.Kuzin umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarix darslarida o'quvchilarning analitik ko'nikmalarini shakllantirish masalalsini ilmiy pedagogik jihatdan tahlil etgan. Bunda o'quvchilarni tarixiy faktlarni tahlil etishga o'rgatish, ularning analitik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlash, shuningdek, ushbu masalaning ilmiy metodik manbalarda aks etish jihatlari o'rganilgan. Olim "analiz" tushunchasini alohida fenomen sifatida baholab, u tadqiqot ob'ektlarining o'zaro bog'likligini ifodalashini alohida ta'kidlab o'tadi.

Analitik fikrlashni shakllantirish o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholash jarayonida yuzaga keladi, bu esa jamoaviy tahlil orqali mumkin bo'ladi. O'z-o'zini



nazorat qilish va o'zini o'zi baholash mumkin, chunki katta yoshdagi o'smirlar o'zlarining analitik tafakkurini o'rtoqlarining analitik tafakkuri bilan solishtirish imkoniyatiga ega.

Echim haqida hisobot berish jarayonida o'rtoqning analitik tafakkuri eng rivojlangan shaklda katta yoshdagi o'smirlar oldida namoyon bo'ladi. Buning sababi, taqdimotchi ovoz chiqarib o'ylashdan foydalanadi.

O'rtoqning analitik tafakkurini baholash orqali katta yoshdagi o'smirlar jamoaviy tahlilga kiritiladi. Analitik fikrlashni baholash jarayonida analitik fikrlashning asosiy xususiyati - uning tizimlili shakllanadi. Bu katta yoshdagi o'spirin turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli sodir bo'ladi. Turli nuqtai nazarlarni baholashdan tizim tug'iladi.

Asta-sekin o'quvchilar e'tiborini muammoni muhokama qilishdan fikrlash jarayonining o'zini, uning fazilatlarini muhokama qilishga o'tadi. Shu tarzda reflektiv fikrlash shakllanadi. Jamoaviy tahlil jarayonida katta yoshdagi o'smirlar rollarni o'zgartiradilar: tinglovchi so'zlovchiga, so'zlovchi tinglovchiga aylanadi. Bu katta yoshdagi o'smirlarning ta'lim faoliyatiga dinamikani qo'shish imkonini beradi [3].

Biz, ushbu maqolamizda tarix darslarida o'quvchilarda analitik fikrlash ko'nikmasi rivojlantirishning ayrim pedagogik texnologiyalarini ko'rib chiqamiz.

"Daymond" metodi

"Daymond" - ingliz tilidan tarjima qilinganda brilliant, olmos [4]. Bu usul ikki qarama-qarshi tushunchalarning qo'shilishi topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladi. Yana aytish ta'lim oluvchi javob berganda chiqib ketadigan masala umrbod uning tajribasiga suyanib fikr yuritishi muhim. O'quvchilarning o'z fikrlari, nuqtayi nazarlarini asoslay olishi, dalillay olishi, bahs-munozaralarga kirisha olishi asosiy maqsad hisoblanadi.

"Daymond" - 7 qatorli she'r. Uni yozish sharti: birinchi va oxirgi qator mazmuni jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi.

- birinchi qatori - bir otliq;
- ikkinchi qator - birinchi qatordagi otning belgilarini tavsiflovchi ikki sifat;
- uchinchi qator - harakatni ifodalovchi uchta fe'l yoki sifat;
- to'rtinchi o'rta qatori to'rt so'zdan iborat gap, shundan ikkitasi birinchi qatordagi otliqni ta'riflaydi, ikkitasi esa unga zid bo'lishi shart;
- beshinchi qator - ikkinchi qatorga ma'nosi qarama-qarshi so'zlar;
- oltinchi qator - uchinchi qatorga ma'no jihatidan qarama-qarshi so'zlar;
- yettinchi qator - birinchi qatordagi otga qarama-qarshi so'z.

Masalan,

chopperlar;

dag'al;

sindiradi, parchalaydi, maydalaydi;

katta narsalarni maydalashda foydalaniladi;

kichik, qulay;

birlashtiradi;



mikrolit.

Metodning afzalligi, birinchidan, o'qituvchiga bir vaqtning o'zida o'quvchilar bilan birgalikda ikki yoki undan ortiq muammolarni qiyosiy o'rganishga yordam beradi, ikkinchidan, o'quvchilarning fikrlash, xotira, o'ylash, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirib, aniq asoslangan ma'lumotlarni yetkazib berishga xizmat qiladi, uchinchidan, o'quvchilar bilan yakka, guruhlarda ishlash imkoniyatini yaratadi, to'rtinchidan, o'qituvchidan ortiqcha resurs talab etilmaydi va sinf doskasi bilan ishlashga yordam beradi.

Qo'shyozuv daftari mashqi [4]

Mavzu mazmuniga e'tibor qaratib, o'z munosabati, qabul qilishi va tushunchasini keltira oladigan jadval hisoblanadi. Qog'ozni ikki qismga bo'lib, chap tomonini "Parchalar" deb atab, unga o'z e'tiborini qaratgan, alohida hayajonlantiradigan parchalarni yozadi. Parchalar yoki ayrim so'zlar, so'z birikmalari, iboralar yoki qisqa gaplar tarzida keltirilishi mumkin.

Qog'ozning o'ng tomoni "Izohlar" deb nomlanadi. Bunda chap tomonda keltirilgan yozuvlarning izohi beriladi, nima uchun u parchalarni yozib oldi, uning sababi nima?

Namuna: So'nggi paleolit davri [5]

So'nggi paleolit davrida (mil. avv. 40-12-ming yilliklar) ko'plab voqealar sodir bo'ladi. Bu davrda toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollarini yasash usullari o'zgaradi. Odamning aqliy qobiliyati va tashqi qiyofasi ham o'zgarib boradi. Bu davrda zamonaviy qiyofaga ega kromanyon odami yashagan. Shunday qilib, so'nggi paleolitda insoniyat o'z taraqqiyotida yana bir bosqichga ko'tariladi. Odamlar qarindoshlardan tashkil topgan ixcham guruhlariga - urug' jamoalariga birlashdi. Urug' a'zolari bir maskan-joyda yashagan. Bir joyda yashab turgan bir necha urug'lar qavmni tashkil etgan. Turar joylar (boshpana) qurilishi so'nggi paleolit davri odamlarining muhim kashfiyoti bo'ldi. Ular kiyim-kechaklarni hayvon terilaridan tayyorlashgan.

Parchalar	Izohlar
1. Tosh davrining so'nggi bosqichi	1. Bu davr mil. avv. 40-12-ming yilliklarni o'z ichiga oladi.
2. Yangicha mehnat qurollari	2. Toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollarini yasash usullari o'zgardi.
3. Odamlarning yangi tipi shakllandi.	3. Bu davrda zamonaviy qiyofaga ega kromanyon odami yashab, ularning aqliy qobiliyati va tashqi qiyofasi ham o'zgarib boradi.
4. Yashash va turmush tarzi o'zgardi.	4. Odamlar yashab qolish uchun qarindoshlardan iborat ixcham guruhlariga birlashdi. Yashash uchun o'zlariga qulay sharoitlar izlay boshladilar. Uy-joylar qurilishi, kiyim-kechaklar bu davrning muhim yangiligi bo'ldi. [6]

Yuqorida tavsiya etilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Xulosa qilib aytganda, analitik fikrlash o'quvchilarda murakkab muammolarni yechish qobiliyatini oshiradi, fikrlar orasidagi mantiqiy bog'lanishni aniqlashni osonlashtiradi, yangi sharoitlarga moslashuvchanlikni oshiradi, hayotda samarali va o'ylangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тошпўлатов Т, Ғаффоров Я. Тарих ўқитиш методикаси. Т-2010. 326 б
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги «Умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 187-сон Қарори
3. Pleumuratova N.M. O'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari (metodik qo'llanma) Nukus, QRPMМ bosmasi, 2024-yil
4. Симбаева С. Белсенді оқу мен оқытуда қолданылатын әдістер (әдістемелік құрал) «Тұран-Астана» университеті баспаханасы, Нұр-Сұлтан- 2019.- 133 б
5. Sagdullaev A.S. Kosteckiy V. A. Тарих (Аyyemgi dún्या) Т-2022
6. Ganiev T. Oqıwshılarda tariyxıy bilimlerde qalıplestiriwde pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıw máseleleri (oqıw-metodikalıq qollanba) Ilimpaz baspası, Nókis-2026, 94-bet